

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar –fevral oyi

## RAQAMLAR:


- 2019 yil yanvar–fevral oylarida bozor xizmatlari hajmi 543,6 mld.so'mga teng bo'ldi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 202,5 % ni tashkil qildi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 406,1 ming so'mga yetdi.

Ma'lumki, xizmatlar ko'rsatish tizimini yaxshilash va modernizatsiya qilish aholi turmush darajasini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

2019 yil yanvar–fevral oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 543,6 mld.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,9 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (33,5 %), moliyaviy xizmatlar (20,3 %), transport xizmatlari (17,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,4 %) tashkil etdi.

## 2019 yil yanvar –fevral oylarida xizmatlar tarkibi, %




2019 yil yanvar –fevral oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 543,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,9 % ni tashkil etdi.

### **2019 yil yanvar –fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>543,6</b>	<b>115,9</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	29,3	96,7
moliyaviy xizmatlar	110,5	202,5
transport xizmatlari	96,5	101,4
shu jumladan: avtovoz xizmatlari	92,1	100,8
yashash va ovqatlanish xizmatlari	16,4	103,8
savdo xizmatlari	182,3	104,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	15,3	102,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	20,1	113,3
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	7,2	112,3
ijara xizmatlari	12,9	105,3
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	16,0	102,2
shaxsiy xizmatlar	17,8	100,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	6,3	155,1
boshqa xizmatlar	13,0	97,4

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlari hajmi (182,3mlrd.so'm), moliyaviy xizmatlar (110,5 mlrd. so'm), transport xizmatlari (96,5 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (29,3 mlrd. so'm), ta'lif sohasidagi xizmatlar (20,1 mlrd. so'm) oshishi kuzatilmogda.


### **2019 yil yanvar –fevral oyalarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi, mlrd.so'm**



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda xizmatlar hajmi nisbatan pastroq o'sish (6,3 mlrd. so'm) qayd etildi.


Joriy yilning yanvar –fevral oylarida ko'rsatilgan xizmat hajmida eng katta ulushi savdo xizmati (33,5%), Moliyaviy xizmatlar (20,3 %), transport xizmatlari (17,8 %) Aloqa va axborotlashtrish ixzmatlari (5,4 %) ni tashkil qilgan bo'lsa, eng kam ulushi Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (1,2 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (1,3 %), boshqa xizmatlar (2,4 %), ijara xizmatlari (2,4 %) tashkil qildi.

### **2019 yil yanvar –fevral oylaridai qtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulusi (foizda)**



Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (202,5%), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (155,1 %), ta'lif sohasidagi xizmatlar (113,3 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (112,3 %), Ijara xizmatlari (105,3 %), kabi xizmat turlarida qayd etildi.

### **2019 yil yanvar –fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (96,7 %), boshqa xizmatlar (97,4 %), shaxsiy xizmatlar (100,3 %), kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida moliyaviy xizmatlarning hajmi 110,5 mlrd. so'mni tashkil etib o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 202,5 foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (94,0 %) etakchilik qilmoqda.

### **2019 yil yanvar –fevral oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %**




Sug'urta bo'yicha xizmatlar (4,5 %) va yordamchi moliya faoliyati bo'yicha xizmatlar (1,5 %) ni tashkil etdi.

Hozirgi kunda viloyatda ulgurji va birja savdo korxonalari faoliyati uchun zarur qonunchilik asoslari yaratilgan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmog'i faol rivojlanmoqda. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2019 yil yanvar–fevral oylarida savdo xizmatlari hajmi 182,3 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 33,5 % ni tashkil etdi.

### **2019 yil yanvar –fevral oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %**



Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 86,7 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 8,5 % ga yetdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosini, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 4,8 % ni tashkil qiladi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 16,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish 103,8 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 3,0 % ga yetdi.

### **2019 yil yanvar –fevral oyilarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 89,5 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 10,5 % ga to'g'ri keladi.